

“TASDIQLAYMAN”

**Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti rektori**


_____**G'.X.Raximov**

2023-yil “30” oktabr

**08.00.15 – TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES
IQTISODIYOTI IXTISOSLIGI BO’YICHA MUTAXASSISLIK
FANIDAN TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI
UCHUN
DASTUR**

DENOV-2023

Tuzuvchilar: **K.U.Turabaeva** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Raqamli iqtisodiyot kafedrası mudiri

A.Yu.Qurbonov -“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası katta o’qituvchisi

Taqrizchilar: **R.X.Ergashev** – Iqtisod fanlari doktori, professor, Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti Innovatsion iqtisodiyot kafedrası professori.

O.M.Melikov – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Moliya va bank ishi kafedrası mudiri

Mazkur dastur Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetining 2023 yil “30” oktabr dagi majlisida muhokama qilinib, ma’qullangan (3 - sonli bayonnoma)

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani  M. Toshboboyev



KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasidir. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlari jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish, turmush farovonligini yaxshilash masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda.

Prezidentimiz, SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishdir.¹

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kichik biznes va tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor vazifa etib belgilandi.

2016 yilning keyingi choragida va 2017 yil joriy oylarida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5- oktyabrdagi PF-4848-sonli "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoniga asosan, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasida, tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni qisqartirish va ularning faoliyatiga asossiz aralashishning oldini olish sohasida, tadbirkorlik sub'ektlarining javobgarligini yanada liberallashtirish sohasida, moliyaviy hamda soliqqa tortish tizimi va bojxona ishini takomillashtirish sohasida, tadbirkorlarning sud orqali himoya qilinishini kuchaytirish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, investitsiyaviy jozibadorligini va respublikaning xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'rtinchi ustuvor yo'nalish, to'rtinchi bo'limi birinchi xatboshi. 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. «Xalq so'zi» 2017 yil 8 fevral 28 (6722)-son.

reytingini oshirish sohasida o'zgartirishlar va imtiyozlar berildi. Ushbu farmonga asosan, 2017 yil 3- yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-419-son) qabul qilindi.

Undan tashqari, Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 07- iyundagi "Har bir oila tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori, 2018 yil 27- iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi 27.06.2018 yil Farmoni va hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan va amalda qo'llanilayotgan qaror hamda farmoyishlar qilinayotgan ishlarning amaliy davomi sifatida e'tirof etishimish mumkin.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishning maqsadi talabalarga Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati, ularning milliy iqtisodiyotimizni rivojlan-tirishdagi o'rni va aholining bandlik muammosini hal etishdagi roli to'g'risida nazariy hamda amaliy bilimlar berishdan iboratdir.

Fanni o'qitishning asosiy vazifasi esa mamlakatimizda Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga hos xususiyatlarini, Kichik biznes va tadbirkorlikning tashkiliy–huquqiy asoslarini hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish, ularning moliyaviy faoliyati va kredit bilan ta'minlash shakllarini, Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining bank, soliq va audit bilan bo'ladigan aloqalarini, axborot bilan ta'minlash usullarini va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini talabalarga o'rgatishdan iboratdir.

«Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari» fanini o'rganish natijasida talabalar Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari, kichik biznesni belgilovchi mezonlar, Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi, Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlari, soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari» talaba tanlov fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmunini, Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rnini, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va tahlil etishni, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishni, Kichik biznes va tadbirkorlikni

bank, soliq, sug'urta, bojxona kabi tashkilotlar bilan munosabatlarini, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini **bilishi**;

- yangi korxonani tashkil etish, uni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish tartibi, texnik-iqtisodiy asoslash va va biznes-reja ishlab chiqishni, kichik korxonani boshqarish, kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida marketing faoliyatini tashkil etishning uslubiy asoslari bo'yicha **ko'nikmalarga ega bo'lishi**;

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari haqida, Kichik biznes va tadbirkorlikni belgilovchi mezonlar haqida, Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash haqida, Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi haqida. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlari haqida, Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari» fani tanlov fani hisoblanib, o'quv rejaga muvofiq 1-kursning 1, 2- semestrlarida o'qitiladi. Umumkasbiy (mikroiqtisodiyot, statistika, makroiqtisodiyot, mehnat iqtisodiyoti. inson taraqqiyoti, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, menejment, marketing, pul, kredit va banklar, moliyaviy va boshqaruv hisobi, moliya va soliqlar, iqtisodiy tahlil va audit, turizm iqtisodiyoti, sanoat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti, fermer va dehqon xo'jaligi iqtisodiyoti) tanlov fanlar (Kichik biznes va tadbirkorlik, ASM iqtisodiyoti, korxonalar iqtisodiyoti, loyiha tahlili, O'zbekiston milliy iqtisodiyoti, innovatsiya iqtisodiyoti, makro-mikroiqtisodiy statistika, kichik biznes va tadbirkorlik asoslari, xalqaro marketing, ishlab chiqarish infratuzilmasi, balans muammolari, amaliy audit, qimmatli qogozlar bozori infratuzilmasi, xizmatlar sohasi iqtisodiyoti, ish yuritish, kapital qurilish iqtisodiyoti, transport iqtisodiyoti) ixtisoslik fanlar (mintaqaviy iqtisodiyot, bozor infratuzilmasi iqtisodiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari, biznes reja, iqtisodiy xavfsizlik, logistika, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti), qo'shimcha fanlar (bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari, tibbiy bilim asoslari, favqulotda xolatdagi harakatlar, mehnat muhofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi, ekonometrikaga kirish) fanlaridan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

So'nggi vaqtda turli mulkchilik shakldagi korxonalar, tovar ishlab chiqaruvchi savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ishbiarmonlar, tadbirkorlarning mamalakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga ishonchi ortdi. Ustuvor yo'nalishlardan biri – milliy bozorlarga tovar ishlab chiqarish va sotish borasida eksport salohiyatini oshirish, mamlakatimizdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati

sohalarida tashqi bozorlarga tovar ishlab chiqarish, sotish va aholiga yetkazish, iste'molchilarni manfaatlarini himoya qilish, eksport salohiyatini oshirish va valyuta zaxiralarini tejash, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat. Mazkur ustuvor masalaning amalga oshirilishi iqtisodiyotning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini o'sishida xususiy sektor ulushini ko'paytirish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish va savdo tizimini yanada erkinlashtirishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun iqtisodchi tadbirkorlardan biznesni xalqaro miqyosda yuritish usullarini bilish va ulardan oqilona foydalana olish talab etiladi. SHuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi.

Fanni o'qitishdagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari

Talabalarning «Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari» fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmua, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stentlardan foydalaniladi.

Mavzularni o'tishda "insert", "blits-so'rov", "klaster", "aqliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi. Amaliy va seminar darslarda "zig-zak", "guruh bo'lib ishlash", "insert", "koop-koop" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri.

Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy

tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni takdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta qo'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Exsel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

ASOSIY QISM

Fan bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari va ularning mazmunlari

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI, SHAKLLARI HUQUQIY ASOSLARI

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga oid me'yoriy-huquqiy asoslari. Tadbirkorlik turlari. Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari.

Tadbirkorlik shakllari. YAKka tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Jamoa tadbirkorligi. Firmalar. Ma'suliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aktsiyadorlik jamiyati. Korporatsiya. Xolding kompaniya. Davlat korxonalari. Kontsern. Konsortsiyum. Kooperativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonalar. Ijara korxonalar. Injining korxonalar.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI

TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Kichik biznes sub'ektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes sub'ektlarining bankrotliligi. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya beruvchi tashkilotlar. Litsenziya berish muddatlari. Litsenziyani bekor qilish tartibi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIDA

MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing – biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funktsiyasi. Bozorni tanlash. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash. Bozor imkoniyatlarida biznesdagi kuchli tomonlarning muvofiqligi. Tovarning hayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun marketing dasturini ishlab chiqish.

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI

REJALASHTIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaning ahamiyati. Biznes-

rejaning mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Biznes-rejani bajarilishini nazorat qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyati samaradorligi tahlili.

BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash va soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari va soliq tizimidagi imtiyozlar. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlanishining hozirgi holati va tahlili. Mamlakatimizda Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

O'zbekistonda Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning Davlat dasturi. Kichik biznes va tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotning turli sektorlarida rivojlanishi. Kichik va yirik biznes korxonalari o'rtasida xo'jalik aloqalarining yo'lga qo'yilishi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.

08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligidan kirish imtihon savollari

1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni
2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari
3. Kichik biznes va tadbirkorlik muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar
4. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari
5. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rnini
6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining umumiy soni;
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi;
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi;
9. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdagi ulushi;
10. Har ming kishiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar soni.
11. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi va rag'batlantirish yo'llari
12. Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish sharoitida kichik biznes rivojlanishini prognoz qilish shart-sharoitlari va variantlari .
13. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining institutsional muammolari
14. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining mintaqaviy jihatlari

15. Кичик бизнес va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari
16. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari
17. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha jahon tajribasi .
18. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni
19. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va mezonlari .
20. Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish sharoitida kichik biznes rivojlanishini prognoz qilish shart-sharoitlari va variantlari
21. Marketing tushunchasi va uning mohiyati nimadan iborat?
22. Marketingning maqsadi va vazifalari.
23. Qanday talab turlarini bilasiz?
24. Marketing turlarini izohlab bering.
25. Marketing muhiti nima?
26. Korxonaning makro-muhitini tavsiflang?
27. Korxonaning mikro-muhitini tavsiflang?
28. Marketing tiplarining asosiy farqli belgilari nimalardan iborat?
29. Bozor segmenti deganda nimani tushunasiz?
30. Yangi sharoitlarda yashab qolish va muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar qanday chora-tadbirlarni qo'llashi kerak?
31. Korxonaning makro-muhitini tavsiflang?
32. Korxonaning mikro-muhitini tavsiflang?
33. Marketing tiplarining asosiy farqli belgilari nimalardan iborat?
34. Bozor segmenti deganda nimani tushunasiz?
35. Yangi sharoitlarda yashab qolish va muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar qanday chora-tadbirlarni qo'llashi kerak?
36. Marketing tushunchasi va uning mohiyati nimadan iborat?
37. Marketingning maqsadi va vazifalari.
38. Qanday talab turlarini bilasiz?
39. Marketing turlarini izohlab bering.
40. Marketing muhiti nima?
41. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari
42. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha jahon tajribasi .
43. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni
44. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va mezonlari .
45. Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish sharoitida kichik biznes rivojlanishini prognoz qilish shart-sharoitlari va variantlari

Asosiy adabiyotlar

1. Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J., G'oyipnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011.
2. Xodiev B.YU., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: TDIU, 2016.
3. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. –T.: TDIU - 2014.

Qo`shimsha adabiyotlar

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli Farmoni

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" 12.01.2017 yil PF-4931-sonli farmoni

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17.01.2017 yildagi PF-4933-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 5.10.2016 yil, PF-4848-sonli farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkoplikka yanada keng erkinlik bepish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 18 iyul 2012 yil, PF-4455-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkoplikni yanada pivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1.02.2017 yil, PQ-2750-son Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 31.01.2017 yil, PQ-2746-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi 07.06.2018 yil, Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi 27.06.2018 yil Farmoni.

15. Мирзиёев Ш.М. ва бошқалар. Ўзбекистонда ишбилармонлик ва тadbirkorlikning rivojlaniши. -Т.: Университет, 1994. -53 б.

16. Fazilov F. M. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida O'zbekiston oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun ss. Avtoref. T: 2009 yil

17. Bekmurodov A.SH. va boshqalar. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari. Ilmiy ommabop qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot", 2009. -92 bet.

18. P.M.Нуриев Экономика развития: модели становления ро'носноной экономики. Учебник. М.: Норма, 2008. 640 стр.

19. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. Учебник для вузов. – М.: РДЛ, 2005.

Baholash mezonlari

Dastur bo'yicha talabgorlar bilimini baholash mezonlari

| | |
|-----------------------------------|--------------------|
| Nazorat shakli, maksimal baholari | Imtihon |
| Maksimal baho | 100 |
| Shakli (og'zaki, yozma, test) | Yozma, og'zaki |
| Muddati (haftalarda) | Belgilangan sanada |

Savollarni baholash quyidagi mezon asosida amalga oshiriladi

86-100- "a'lo"

tadqiqotchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, javoblarini ilmiy asolay oladi, mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, olib borayotgan pedagogik tadqiqotning mazmun mohiyati va o'ziga xosligini bilsa, tadqiqot asosnomasini shakllantira olsa - (a'lo) baho

71-85-"yaxshi"

tadqiqotchi mustaqil mushohada yuritadi, pedagogika fani bo'yicha olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, olib borayotgan pedagogik tadqiqotning mazmun mohiyati tushunsa - (yaxshi) baho

**56-70-
"qoniqarli"**


tadqiqotchi pedagogika fani bo'yicha egallagan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni qisman tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - (qoniqarli) baho

0-55-

tadqiqotchi fan dasturini, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega

| | | |
|--|---------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | “qoniqarsiz” | emas, pedagogik tadqiqot haqida ma'lumotga ega emas deb topilganda - (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi. |
|--|---------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası mudiri



K.U.To'raboyeva

Tadbirkorlik va boshqaruv fakul'teti dekani



M.J.Toshboboyev